

BORLIQ — FALSAFANING FUNDAMENTAL KATEGORIYASI

Safarova Zarrina Shirinboy qizi
Samarqand Davlat Universiteti Kattaqo`rg`on filiali
Xorijiy til va adabiyoti (Ingliz tili)
[*safarovazarrina9@gmail.com*](mailto:safarovazarrina9@gmail.com)

Anotatsiya: Borliq deganda avvalo biz obyektiv mavjud reallikni ifodalovchi falsafiy tushunchni tushunamiz. U faqatgina moddiy predmet olamidangina iborat emas . Borliq organik yoki noorganik tabiat, biosfera, ijtimoiy borliq va inson turmushi kabi turli darajalarda nomoyon bo`ladi. Borliqni bir guruh faylasuflar ikki turga ajratishadi: vujudu mumkin va vujudi vojib. Yana qo`shimcha tarzda borliqqa zid tarzda yo`qlik tushunchasi ham mavjud. Bular bir-biriga qarama-qarshi tushunchalar hisoblanadi.

Kalit so`zlar: olam, borliq, ontologiya, ijtimoiy borliq, real borliq, individual borliq, yuqlik, hayot, harakat, rivojlanish, mavjudlik, virtual borliq, biosfera, noosfera, fazo, vaqt.

Olam va odam o`rtasidagi munosabatlar. Aslida o`zi siz bilan biz yashayotgan bu olam o`zining murakkabligi va muommolari, jozibadorligi bilan yagona bir olamni tashkil qiladi. Agarda bu olamda odam bo`lmaganida edi olam haqidagi sirlar ham mavhumligicha qolgan bo`lard chunki olam odam va uning faoliyati kechadigan makonni aks ettiradi. Ana endi esa yo`qlik degan tushunchaga e`tibor qaratadigan bo`lsak borliqqa qarama-qarshi bolgan tushuncha hisoblanadi. Yo`qlik bu hech narsasi bo`lmagan olam yo`qlikdir. U mavhum, tushuncha.

Odamzod paydo bo`libdiki, u o`zini anglagan: holda olamning bir bo`lagi ekanligini anglay boshlagan. Shu tufayli insonlar bora-bora olamdagi narsalarga nisbatan hurmat bilan qarashgan. Misol uchun olov , suv, tuproq va havoni e`zozlaganlar. Va hattoki buning isboti sifatida Islom dinining muqaddas kitobi “Avesto” da ham mana shu to`rt narsa muqaddas hisoblanishi bejizga emas. Olam bu eng avvalo odamzod va hayvonot olami, o`simlik va hasharotlar dunyosi, jismoniy, ruhiy va ma`naviy olam va shu singari ko`plab tushunchalar mavjud.

“Ontologiya” tushunchasi. Borliqni o`rganuvchi fan Ontologiya deyiladi. Ontologiyaning predmetini esa borliq tashkil etadi. “ontologiya” atamasi borliq haqidagi ta`limot ma`nosida ilk bor R.Goklenius (1636-yil) va I. Klauberg (1646-yil) ilmiy muomalaga kiritilgan. Lug`aviy ma`noda u yunoncha “ontos”-borliq va “logos”-ta`limot degan manoni anglatadi.

Borliq tushunchasi. Borliq ko`rinishidan juda soda narsadek ko`rinsada ammo hozirgacha butun dunyo faylasuflari izlanishlar olib borishiga qaramasdan aniq

bir to'xtamga kelisha olmagan.. Shunday bo'lsada borliq haqida ba'zi bir faylasuflar izlanishlar olib brogan va natijada borliq bu moddiylik, moddiy jismlar bilan bog'lab tushuntirishadi. Ularning fikriga ko'ra borliq—obyektiv realliknigina qamrab oluvchi tushunchadir. U holda fikr,inson tafakkuri degan tushunchlar chetda qolar ekan-da degan savolga ular bunday tushunchalar obyektiv borliqning hosilasi deya javob berishadi.

Yo'qlik hech nima demakdir. Hamma narsani hech nimaga aylantiruvchi, hamma narsaning intihosi ham ibtidosi ham yo'qlikdir. Yuqlik nihoyalangan joyda albatta borlik vujudga keladi. Borliq yuqlikdan yuqlikkacha bolgan mavjudlikdir. Yuqlikni hech narsa bilan ifodalab bo'lmaydi chunki yuqlik degan tushunchaga hali fanda javob topilmagan.

Borliqning atributlari. Muayyan jismning aynan shu jism ekanligini belgilovchi xususiyatlari uning atributlari deyiladi. Borliqning atributlariga harakat, fazo, vaqt, ong va boshqalar kiradi. Harakat borliqning atributlari ichida uning asosiy

Rivojlanish o'zgarishlarning shunday bir shakli borki uni falsafada biz rivojlanish deb ataymiz. Rivojlanish bu muayyan sistemaning muayyan vat va fazodagi yaxlit kompleks, orqaga qaytmaydigan. Ilgarilanma yo'nalishga ega bo'lgan miqdoriy sifatiy o'zgarishlardir.

Fazo va vaqt, makon va zamon tushunchalari. Borliqning asosiy yashash shakllariga makon zamon,ya'ni fazo va vaqt kiradi. Fazo narsalarning ko'lamini, hajmini, o'zaro joylashish tartibini, uzlukli yoki uzluksizligini ifodalasa, vaqt hodisalarning ketma-ketligi , jarayonlarning davomiyligini ifodalaydi. Ma'lumki har qanday moddiy jism joyga, ko'lamga hajmga ega. Fazo—vaqtning muayyan lahzada olamni tashkil etgan nuqtalarning o'zaro joylashish tartibini aks ettirsa,vaqt esa fazoning muayyan nuqtasida ro'y beruvchi jarayonlarning vaqtini ifodalaydi.

Hech narsasiz fazoning bo'lishi mumkin emas. Bu farqni relyativistik fizika asoschisi Albert Eynshteyn shunday tushuntirgan edi. Faraz qilib, bir kazarma saldatlarni ko'z oldingizga keltiring. Ilgarigi, Nyuton fizikasiga ko'ra soldatlar chiqib ketishi bilan kazarma bo'sh qoladi. Ana o'sha hodisa substansial konsepsiyasidagi fazodir. Yangi fizikaga ko'ra soldatlarchiqib ktib kazarmaning bo'sh qolishini relyatsiyon konsepsiya deb atashadi.

Xulosa: Shunday qilib borliq deganda avvalo ko'z oldimizga bizni o'rb turgan olam keladi. Olam esa odam va uning faoliyati bilan chambarchas bo'lgan jarayondir. Chunki inson bo'lmaaganda olam haqida sirlar mavhumligicha qolgan bo'lardi. Shuningdek borliq va mavjudlik bir-biriga yaqin tushunchalar bo'lsa yuqlik ularga zid tushuncha hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “Falsafa asoslari” Q.Nazarov
2. <https://www.wikipedia.com>